O‘zbekiston Respublikasida qurilish *(2026-yil yanvar-sentabr oylari uchun)*


I. Bajarilgan qurilish ishlarining hajmi
II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari
III. Korxona turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmining taqsimoti
IV. Qurilish ishlari bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama’lumotlar

I. Bajarilgan qurilish ishlarining hajmi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida»gi PF-173-son Farmoniga muvofiq 2026-yil 15-yanvar holatiga ko‘ra o‘tkazilgan aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish natijalari asosida qurilish ishlari hajmi hisoblandi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida O‘zbekistonda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 339 328,2 mlrd so‘mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 12,3 foizga oshdi.

Bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’atlari



1-jadval. Hududlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari (2026-yil yanvar-sentabr)

Hududlar	Hajm, mlrd so‘m	O‘sish sur’ati, 2025-yilning mos davriga nisbatan foizda
O‘zbekiston Respublikasi[1]	**339 328,2**	**112,3**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	10 881,1	128,9
Andijon viloyati	17 170,9	118,8
Buxoro viloyati	16 451,1	120,5
Jizzax viloyati	8 985,2	132,2
Qashqadaryo viloyati	19 651,7	113,3
Navoiy viloyati	13 689,6	119,8
Namangan viloyati	16 387,6	121,1
Samarqand viloyati	16 345,5	128,7
Surxondaryo viloyati	13 750,4	120,3
Sirdaryo viloyati	6 379,1	113,9
Toshkent viloyati	33 414,5	119,8
Farg‘ona viloyati	23 360,3	126,9
Xorazm viloyati	13 597,5	128,6
Toshkent shahri	103 245,1	113,0

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Qurilish ishlari hajmi (oylik)
Qurilish ishlari hajmi (yillik)

[1] *Hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmni qo‘shgan holda*

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida O‘zbekistonda qurilish ishlari iqtisodiy faoliyat bo‘yicha quyidagicha taqsimlandi:

- umumiy qurilish ishlari hajmida bino va inshootlar qurilishining ulushi 71,1 foizni tashkil etib, o‘sish sur’ati esa 2025-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 106,3 foizga yetdi;
- fuqarolik obyektlari qurilishining ulushi 18,8 foizni tashkil etib, o‘sish sur’ati esa 2025-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 129,3 foizga yetdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ulushi 10,1 foizni tashkil etib, o‘sish sur’ati esa 2025-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 133,0 foizga teng bo‘ldi.

Iqtisodiy faoliyat bo‘yicha qurilish ishlari (2026-yil yanvar-sentabr)



2-jadval. Iqtisodiy faoliyat bo‘yicha qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’atlari (2026-yil yanvar-sentabr)

	Bino va inshootlar qurilishi	**Fuqarolik obyektlari qurilishi**	**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari**
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so‘m	59 323,7	21 805,9	8 413,1
o‘sish sur’ati, %da	92,3	146,7	130,1
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so‘m	103 767,6	41 972,7	25 929,5
o‘sish sur’ati, %da	111,8	121,7	134,0
Aholi tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi, mlrd so‘m	78 073,2	42,5	-
o‘sish sur’ati, %da	111,7	2,8m	-

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Bino va inshootlar qurilishi hajmi (oylik)
Bino va inshootlar qurilishi hajmi (yillik)
Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi (oylik)
Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi (yillik)
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi (oylik)
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi (yillik)

III. Korxona turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmining taqsimoti

Korxona turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi (2026-yil yanvar-sentabr)




2026-yilning yanvar-sentabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy narxlarda 89 542,7 mlrd so‘mni tashkil etdi. Ularning umumiy hajmdagi ulushi 26,4 foizni, 2025-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘sish sur’ati esa 104,6 foizni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining umumiy hajmdagi ulushi 50,6 foizni tashkil etdi. Ular tomonidan bajarilgan ishlar hajmi joriy narxlarda 171 669,8 mlrd so‘mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 117,1 foizga yetdi.

Jami qurilish ishlari hajmining 23,0 foizi aholi tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Ularning hajmi 78 115,7 mlrd so‘mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘sish sur’ati esa 111,7 foizga teng bo‘ldi.

Korxona turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’atlari (2026-yil yanvar-sentabr)




3-jadval. Korxona turlari va hududlar bo‘yicha qurilish ishlari hajmi (2026-yil yanvar-sentabr)

Hududlar	Hajm, mlrd so‘m			O‘sish sur’ati, 2025-yilning mos davriga nisbatan foizda		
	Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Aholi tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari	Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Aholi tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari
O‘zbekiston Respublikasi [2]	**89 542,7**	**171 669,8**	**78 115,7**	**104,6**	**117,1**	**111,7**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3 030,6	4 543,6	3 306,9	3m	114,7	95,7
Andijon viloyati	1 609,6	8 742,6	6 818,7	192,2	113,4	115,5
Buxoro viloyati	3 400,8	8 551,7	4 498,6	189,5	114,7	102,3
Jizzax viloyati	1 289,9	4 544,0	3 151,3	165,8	119,4	142,6
Qashqadaryo viloyati	4 272,8	7 223,4	8 155,5	117,0	122,5	104,5
Navoiy viloyati	4 626,8	5 342,4	3 720,4	138,2	116,4	106,7
Namangan viloyati	1 776,0	6 681,9	7 929,7	2m	115,5	115,3
Samarqand viloyati	3 729,6	9 521,7	3 094,2	2,4m	124,1	89,3
Surxondaryo viloyati	1 765,8	6 769,5	5 215,1	157,6	120,4	111,2
Sirdaryo viloyati	1 035,5	4 287,3	1 056,3	134,4	112,0	105,2
Toshkent viloyati	6 607,7	16 403,4	10 403,4	157,9	116,2	108,6
Farg‘ona viloyati	3 002,2	11 918,2	8 439,9	131,7	124,4	128,8
Xorazm viloyati	2 509,8	5 430,2	5 657,5	2,5m	115,7	116,3
Toshkent shahri	24 867,0	71 709,9	6 668,2	104,3	115,7	119,5

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahri (24,9 trln so‘m), Toshkent viloyati (6,6 trln so‘m) va Navoiy viloyatida (4,6 trln so‘m) qayd etildi.

Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlarining ulushi (2026-yil yanvar-sentabr)



[2] *Hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmni qo‘shgan holda*

IV. Qurilish ishlari bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama’lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta’mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarini o‘zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta’minoti, issiqlik ta’minoti, kanalizatsiya, poydevorlarni o‘rnatish, devorlarni ko‘tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnik ishlar, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, yer qatlamini ochish, madaniy-texnik ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo‘shilgan qiymat solig‘ini qo‘shmagan holda, to‘lov muddatidan qat’i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo‘yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo‘yicha statistik axborotni shakllantirish:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistik hisobotlari (oylik, yillik);

b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;

d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlari qurilishi monitoringi bilan shug‘ullanuvchi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining hududiy boshqarmalari statistik hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlanma statistik kuzatuvi ma’lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo‘jalik usuli bilan ta’mirlash hajmini statistik baholash asosida amalga oshiriladi.

Metama’lumotlar uchun havolalar:
https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf
https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf

Izoh: 2025-yil va undan oldingi yillarga oid ko‘rsatkichlar qayta hisoblanganligi sababli avval e’lon qilingan ma’lumotlardan farq qilishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas’ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
D. Xidiraliyeva
71 203-80-00 (1163)

Manzil: